

BOLALAR XOR JAMOASIDA QO'SHIQ O'RGATISH METODLARI.

Bekbauliyeva Feruza Majit qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

"Musika ta'limi" bakalavriat 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21215464>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar xor jamoalariga qo'shiq o'rgatishning pedagogik va metodik asoslari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xor rahbarining mashg'ulotlarga tayyorgarligi, repertuar tanlash mezonlari, vokal-xor mashqlarini tashkil etish hamda qo'shiqni bosqichma-bosqich o'rgatish metodlari yoritilgan.

Tadqiqot davomida bolalar ovozinig fiziologik xususiyatlari, musiqiy eshituvni rivojlantirish, sof intonatsiyaga erishish, to'g'ri nafas olish, diksiya va ansambl uyg'unligini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, bir ovozli kuylashdan ikki ovozli ijroga bosqichma-bosqich o'tish, kanon usulidan foydalanish hamda xalq qo'shiqlarini xor repertuariga kiritishning samaradorligi asoslab berildi. Mazkur maqola umumta'lim maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, xor studiyalari rahbarlari hamda musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun metodik tavsiya sifatida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bolalar xori, xor rahbari, musiqa pedagogikasi, qo'shiq o'rgatish metodikasi, vokal texnikasi, intonatsiya, unison, ikki ovozli kuylash, kanon usuli, ansambl, musiqiy eshituv, diksiya, nafas olish, estetik tarbiya, ijrochilik mahorati.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПЕНИЮ В ДЕТСКОМ ХОРОВОМ КОЛЛЕКТИВЕ.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы педагогические и методические основы обучения пению детских хоровых коллективов.

Освещены подготовка руководителя хора к занятиям, критерии отбора репертуара, организация вокально-хорных упражнений и методы поэтапного обучения пению. В ходе исследования были проанализированы физиологические особенности детского голоса, развитие музыкального слуха, достижение чистой интонации, правильное дыхание, дикция и теоретические и практические аспекты формирования ансамблевой гармонии. Также обоснована эффективность поэтапного перехода от одноголосного пения к двухголосному исполнению, использования канонного метода и включения народных песен в репертуар хора. Данная статья имеет практическое значение в качестве методической рекомендации для руководителей общеобразовательных школ, детских школ музыки и искусства, хоровых студий, а также студентов, обучающихся по направлению музыкального образования.

Ключевые слова: детский хор, руководитель хора, музыкальная педагогика, методика обучения пению, вокальная техника, интонация, унисон, двухголосное пение, канонический метод, ансамбль, музыкальный слух, дикция, дыхание, эстетическое воспитание, исполнительское мастерство.

METHODS OF TEACHING SINGING IN A CHILDREN'S CHOIR ENSEMBLE.

Abstract. This article analyzes the pedagogical and methodological foundations of teaching singing to children's choir groups from a scientific perspective. The choral director's preparation for the classes, the criteria for selecting the repertoire, the organization of vocal-choral exercises, and the methods for teaching singing in stages are highlighted.

During the study, the physiological features of children's voice, the development of musical hearing, achieving pure intonation, proper breathing, diction, and the theoretical and practical aspects of forming ensemble harmony were analyzed. The effectiveness of the gradual transition from one-voice singing to two-voice performance, the use of the canonical method, and the inclusion of folk songs in the choir's repertoire is also substantiated. This article is of practical importance as a methodological recommendation for heads of general education schools, children's music and art schools, choir studios, and students majoring in music education.

Keywords: children's choir, choir director, music pedagogy, singing teaching methodology, vocal technique, intonation, unison, two-part singing, canonical method, ensemble, musical hearing, diction, breathing, aesthetic education, performance mastery.

Musiqqa san'ati yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Xor san'ati esa bolalarda jamoa bilan ishlash madaniyati, musiqiy tafakkur, tinglash va o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizda musiqqa ta'limini rivojlantirish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash hamda milliy musiqqa merosini yosh avlodga yetkazishga qaratilgan islohotlar xor ta'limi sifatini oshirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan bolalar xor jamoalariga qo'shiq o'rgatish metodlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Qo'shiq o'rgatish jarayoni nafaqat musiqiy asarni yodlash, balki uning mazmunini anglash, to'g'ri vokal ko'nikmalarni shakllantirish, badiiy ifoda vositalaridan foydalanish va jamoaviy ijro madaniyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun xor rahbari har bir mashg'ulotni puxta rejalashtirishi va o'quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Bolalar xor ijrochiligi va vokal pedagogikasi masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. A. Mansurov xor dirijyorligi va xor bilan ishlash metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, I. Rajabov va B. Egamberdiyev musiqqa pedagogikasi hamda vokal tayyorgarligi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Sh.Sharipov musiqqa ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini yoritgan.

Xorijiy tadqiqotchilar Zoltán Kodály, John Bertalot va Kenneth H. Phillips ishlari bolalar ovozi rivojlantirish, musiqiy savodxonlikni oshirish hamda xor mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha muhim metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Z.Kodály metodida xalq qo'shiqlaridan foydalanish va musiqiy eshituvni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Phillips esa bolalar xorini boshqarishda vokal texnikasi, repertuar tanlash va ansambl uyg'unligini shakllantirishning ilmiy asoslarini bayon etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar xor jamoalarida qo'shiq o'rgatish metodlarini milliy musiqqa an'analari bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligida qo'llash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish;
- qiyosiy tahlil;
- umumlashtirish va tizimlashtirish;
- xor mashg'ulotlari tajribalarini o'rganish;

- vokal-xor mashqlarining amaliy natijalarini tahlil qilish.

Mazkur metodlar bolalar xor jamoalarida qo'shiq o'rgatishning samarali usullarini aniqlash va ularning pedagogik ahamiyatini baholash imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qo'shiqni jummalarga ajratib o'rgatish usuli bolalarning musiqiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir jumlaning alohida o'zlashtirib, keyinchalik ularni yaxlit shaklda ijro etish asarni tez va puxta o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Sof intonatsiyani rivojlantirish uchun muntazam vokal mashqlarni bajarish, diapazonni bosqichma-bosqich kengaytirish va to'g'ri nafas olish texnikalaridan foydalanish samarali natija beradi. Mashg'ulotlarda pianino jo'rligidan, audiomateriallardan hamda interfaol usullardan foydalanish bolalarning musiqiy qiziqishini oshiradi.

Ikki ovoqli kuylashni o'rgatishda avvalo asosiy kuy to'liq o'zlashtirilgach, ikkinchi ovoqli bosqichma-bosqich qo'shish maqsadga muvofiqdir. Kanon usulida kuylash polifonik eshituvni rivojlantiradi, ansambl hissini kuchaytiradi va ko'p ovoqli ijroga tayyorlaydi. Shuningdek, xalq qo'shiqlari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did va musiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalar xor jamoalariga qo'shiq o'rgatish murakkab va ko'p bosqichli pedagogik jarayon bo'lib, xor rahbaridan yuqori kasbiy mahorat hamda metodik tayyorgarlikni talab etadi.

Mashg'ulotlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, vokal mashqlarni muntazam o'tkazish hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish o'quvchilarning musiqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari xor ta'limida tizimli metodik yondashuvni qo'llash bolalarda ijrochilik mahorati, musiqiy eshituv, estetik did va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidov, M. Bolalar xor jamoasi bilan ishlash metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2020.
2. Egamberdiyev, B. Vokal-xor ijrochiligi asoslari. T: Musiqi. 2016.
3. Kodály, Z. The Selected Writings of Zoltán Kodály. London: Boosey & Hawkes. 1974
4. Mansurov, A. Xorshunoslik va xor dirijyorligi. T: O'qituvchi. 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Musiqi fani o'quv dasturi. T. 2023.
6. Sharipov, Sh. Musiqi ta'limi metodikasi. T: Tafakkur Bo'stoni. 2019.